

Sharofutdinov Iqboljon Usmonjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Amaliy matematika va informatika kafedrasida o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA MASHG'ULOT JARAYONIDA KOMPYUTER SLAYDLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya: Internet orqali boshqa shaharlardagi yoki shu xuddagi maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilari o'rtasida ma'lum bir shaklda musobaqalar tashkil etish imkoniyati mavjud. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilari monitor ekranida namoyish etiladigan materiallarni o'rganib borsalar va kompyuterdan foydalanish bo'yicha yetarlicha kunlik xosil qilsalar, maktabda boshlag'ich sinfda informatika fanini o'rganishga, kelajakda esa litsey yoki oliy o'quv yurtida kompyuterdan foydalana olish malakasiga to'liq ega bo'ladi. Shu bilan birga, tarbiyalanuvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida mantiqiy tafakkurlari rivojlanadi, bilim olishga xavaslari va ishtiyoqlari ortadi, dunyoqarashlari shakllanadi.

Tayanch so'zlar: Ta'lim tizimi, kompyuter ekрани, ta'lim -tarbiya jarayoni, multfilm roligi, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari, elektron ta'lim manbalari.

Ta'lim sohasida multimedial texnologiyasidan foydalanish dastlab oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari uchun multimedial elektron ta'lim manbalari yaratishdan boshlangan. Hozirgi kunga kelib multimedial ta'lim manbalaridan, maktabgacha ta'lim muassasalarida foydalanish o'rinni xisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida mashg'ulot jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bolalarni texnologiyaga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Bolalar uchun qo'llanma yoki darslik sifatida - kompyuter xotirasiga kiritilgan ma'lumotlar va o'quv materiallari, tarbiyachi (pedagog) uchun multimedia texnologiyasiga oid pedagogik, ilmiy-metodik adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, tavsiyalar va ularning elektron varianti ta'lim manbalari hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib turli mashg'ulotlar o'tkazilishi mumkin. Multimedia texnologiyasiga asoslangan mashg'ulotlar kompyuterlar asosida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida lokal tarmoqni tashkil etish uchun kamida 5-6 ta kompyuter bilan jixozlangan bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kompyuterlardan foydalangan holda mashg'ulot olib borish quyidagicha bo'ladi. 5 ta kompyuter maxsus kabel (koksial sim) orqali bir-biriga ulanadi, 6-kompyuter ham shu lokal tarmoqqa ulanib, tarbiyachi stoliga o'rnatiladi. Agar guruhda tarbiyalanuvchilar soni 15 nafar bo'lsa har bir kompyuter oldiga 2-3 nafar tarbiyalanuvchi o'tiradi. Tarbiyachi markaziy kompyuterda ishlaydi va guruhda o'rganilayotgan materiallarni tushuntirib boradi. Kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda o'tiladigan mashg'ulotlar asosan katta va o'rta guruhlarda o'tkazilishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassasalarida internetdan foydalanishning xam keng imkoniyatlari mavjud.

Masalan: badiiy adabiyot mashg'ulotida tarbiyachi biror ertagni slaydlar orqali so'zlab berishi mumkin.

Matematika mashg'ulotida esa geometrik shakllar bo'yicha elementar matematik tasavvurni shakllantirishga oid multimedial taqdimot yaratilgan. Ushbu taqdimot yordamida bolalarda mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish yanada ortadi. Bolalar mashg'ulot jarayonida doyra, kvadrat, uchburchak, shar, kublarni farqlaydi, nomlaydi va ularning xususiyatlarini biladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagog-tarbiyachilari o'z soxalari bo'yicha teleanjumanlarda qatnashishi mumkin. Buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi yangiliklar yoki ish tajribasi bo'yicha multimediyaga asoslangan ochiq mashg'ulotlar o'tkazishlari mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilarining ta'lim-tarbiya bo'yicha saviyasini oshirish maksadida

Internet orqali boshqa shaharlardagi yoki shu xuddagi maktabgacha ta'lim muassasari tarbiyalanuvchilari o'rtasida ma'lum bir shaklda musobaqalar tashkil etish imkoniyati mavjud. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari monitor ekranida namoyish etiladigan materiallarni o'rganib borsalar va kompyuterdan foydalanish bo'yicha yetarlicha kunikma xosil qilsalar, maktabda boshlag'ich sinfdan informatika fanini o'rganishga, kelajakda esa litsey yoki oliy o'quv yurtida kompyuterdan foydalana olish malakasiga to'liq ega bo'ladi. Shu bilan birga, tarbiyalanuvchilarning kompyuterdan foydalanish jarayonida mantiqiy tafakkurlari rivojlanadi, bilim olishga xavaslari va ishtiyoqlari ortadi, dunyoqarashlari shakllanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga kompyuter texnologiyalaridan foydalanib mashg'ulot o'tishda quyidagilarga e'tibor berish kerak. Bolalarning yoshini va fikrlash darajasini, ta'lim materialini qay darajada eslab qolish imkoniyatlarini hisobga olish, kompyuter bilan ishlaganda ko'z toliqishini oldini olishni hisobga olish kerak.

Agar bolalar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotning xotirada saqlab qolinishi 25-30 % ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75 % ga ortadi.

Axborot texnologiyalarini katta tezlikda rivojlanishi bilan ta'lim tizimiga masofali o'qitish – Internet tarmog'i orqali o'qitish texnologiyasi kirib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida ta'lim tizimiga zamonaviy psixologik-pedagogik uslublarni qo'llash uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki yurtimizda global tarmoq o'sish suratlari o'sib bormoqda. Xozirgi kun ta'lim tizimida, shu jumladan, Maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayonida ta'limga oid o'yinlar va masofali ta'lim texnologiyalaridan foydalanish alohida o'rin tutayotganligi uchun ushbu masalalarni kengroq o'rganib chiqish maqsad qilib olindi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'limiy o'yinlarni o'tkazishda kompyuter texnologiya uslubidan foydalanibgina qolmay, guruhiy, yakkama-yakka ish, birgalikda muhokama, test o'tkazish va so'rov, ro'lli vaziyat yaratishlardan foydalanib ham bilim berish samaradorligini oshirish va bolalarni yanada qiziqtirish ham mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlarni amalga oshirish uchun albatta eng avvalo yaxshi pedagog tarbiyachilar, kompyuter orqali multimediyaga vositalarini o'rgatuvchi mutaxxaslar, guruh bolalarining yoshlariga mos tarzda ta'lim-tarbiya bera oluvchi psixologlar bo'lishi, xonalarning keraklicha multimediyaga texnologiyalari bilan jixozlanganlik darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.Alimov "Bolajon tayanch dasturi" –Toshkent 2010.
2. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik ta'limga tayyorlash"-Toshkent 2005.